

TALONCHILIK VA BOSQINCHILIK KO'RINISHIDAGI O'G'RILIKNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA UNING OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRIS



Jurayev Zoxidjon Ashurovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'g'rilik jinoyatining o'ziga xos xususiyatlari, talonchilik va bosqinchilik ko'rinishidagi o'g'rilik jinoyatlarining bir-biridan farqli jihatlari hamda ularning oldini olishni takomillashtirish borasida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: talonchilik, bosqinchilik, o'g'rilikning obyektiv tomonlari, qilmish, oqibat.

Аннотация. В статье подробно рассматриваются особенности состава кражи, особенности преступлений, связанных с кражами, в форме грабежа и разбоя, а также вопросы совершенствования их профилактики.

Ключевые слова: грабеж, разбой, посягательство, объективная сторона кражи, деяние, последствие.

Abstract. In this article, the specific features of the crime of theft, the different aspects of theft crimes in the form of robbery and invasion, and the improvement of their prevention are discussed in detail.

Keywords: robbery, invasion, objective aspects of theft, act, consequence.

O'g'rilik qonunda mulkni yashirinchalik o'g'irlash sifatida talqin qilinadi va belgilangan [1].

Shuni ta'kidlash kerakki, "o'g'rilik" tushunchasi mulk huquqiga nisbatan turli xil tajovuzlarni birlashtiradi, bu esa uning huquqiy mohiyatini oldindan belgilab beradi. Har qanday o'g'rilik belgisining yo'qligi qilmishning o'g'rilik sifatida tasniflashni istisno qiladi. Biroq, ushbu belgilarning mavjudligi har doim ham qilmishni o'g'rilik deb tasniflashga imkon bermaydi. Chunki o'g'rilikning o'ziga xos shakllari qo'shimcha belgilarga ega. Ular har doim ham aniq ko'rsatilmagan bo'ladi [2].

Topib olingan biror mol-mulk ham o'g'rilikning ba'zi belgilarini o'z ichiga oladi. Biroq, o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan bir qatorda, boshqa birovlarining mol-mulkini olib qo'yish ham tahliliy

jihatdan alohida guruhiga tegishli bo'lib, uning majburiy belgisi boshqa birovlarining mol-mulkini aybdor foydasiga aylantirish va uni jabrlanuvchining egaligidan olib qo'yishdir.

O'g'rilik har qanday narsa-buyumga, g'oya va fikrga, mol-mulkka nisbatan bo'lishi mumkin. Ular erkin fuqarolik muomalasida bo'ladimi, ularning aylanmasi cheklanganmi yoki muomaladan chiqarilganmi buni farqi yo'q. Ammo, shuni yodda tutish kerakki, qonunda ba'zi narsalar (masalan, yadroviy materiallar, radioaktiv moddalar, qurol-yarog', o'q-dori, portlovchi moddalar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va boshqalar)ni o'g'irlash bo'yicha maxsus normalar mavjud bo'lib, ularning xavfi mulkiy zarar yetkazish bilan emas, balki jamoat xavfsizligiga tahdid yaratish bilan belgilanadi [3].

O'g'rilikning obyektiv tomoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

qilmish – birovning mol-mulkini noqonuniy ravishda olib qo'yish va aybdor yoki boshqa shaxslarning foydasiga tasarruf etish;

oqibatlari – mulk egasiga (yoki uning yaqinlariga) moddiy, ma'naviy va mulkiy zarar yetkazish;

harakat va oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'liqlik. "O'g'rilik" tushunchasidagi noqonuniylik jinoyat qonuni bilan harakatni taqiqlashning tor ma'nosida emas, balki mulkni tortib olish, undan foydalanish yoki tasarruf etish huquqining yo'qligi ma'nosida tushunilishi kerak. Tasarruf qilishning noqonuniyligini anglash o'g'rilik paytida niyat tarkibiga kiradi. Shaxs o'zini xatti-harakatlarini qonuniy deb noto'g'ri hisoblagan holatlarda (masalan, qarzni qaytarishni ta'minlash maqsadida) mol-mulkni tortib (yoki yashirin, bildirmasdan) olishi ham o'g'rilik hisoblanadi [4].

Beg'araz tarzda o'zgalar mol-mulkini musodara qilib yuborish ham o'g'rilikning bir turi sifatida tushuniladi. Shuni yodda tutish kerakki, yetarli (ekvivalent) tovon pulini o'z-o'zidan noqonuniy yoki egasining rozilgisiz olib qo'yish muomalani qonuniy holga keltirmaydi. Agar bunday kompensatsiya mavjud bo'lsa, o'g'rilik tarkibi va shakllari mavjud emas deb qaraladi. Bu qilmishning malakasini istisno etmaydi. Agar ushbu jinoyat har qanday tarkibining barcha belgilari mavjud bo'lgan taqdirda ham. Ko'pgina hollarda, mol-mulk egasi bilan shartnoma bo'lmagan taqdirda ham, pullik olib qo'yish va (yoki) muomala qilish umuman jinoiy javobgarlikka olib kelmaydi. Masalan, ijaraga olingan chang'i, velosiped va hokazo jihozlarni o'zlashtirgan, uni olgandan keyin qiymatini qoplaydigan pul miqdorini garovga qo'ygan bo'lsa. Shuni yodda tutish kerakki, biror-bir yoki boshqa sabablarga ko'ra jinoyatchi tomonidan jinoyat sodir etilgan joyda qoldirilgan narsalar kompensatsiya sifatida ko'rib chiqilishi mumkin emas. Masalan, agar do'konda paltoni, oyoq kiyim, shuba va shu kabi boshqa narsalarni o'g'irlashda jinoyatchi eski narsalarini kiyinish xonasida qoldirib ketgan bo'lsa, o'sha qolgan narsalarning narxi qilmishini saraklashda va baholashda hisobga olinmaydi. Bunday sharoitda o'g'irlangan narsaning egasi tashlab qo'yilgan narsaga bo'lgan huquqni qo'lga kiritmaydi. U ishda, aksincha ashyoviy dalil sifatida

ishtirok etadi. Keyinchalik uning taqdiri jinoyatprotsessual qonunchiligi normalariga muvofiq ko'rib chiqiladi [5].

Mulkni olib qo'yish (o'g'rilikning yana bir konstruktiv belgisi) uning egasi – mulkdor yoki boshqa egasining egaligidan olib qo'yish bilan amalga oshiriladi. Egalik deganda, shaxsning biror mol-mulkka (xoh shaxsiy, xoh ijaraga olingan yoki vaqtincha foydalanish huquqidagi) nisbatan haqiqiy va huquqiy (qonuniy) ustunligi tushuniladi. Shuni yodda tutish kerakki, bu narsa egasining egaligida saqlanadi va u biror-bir sababga ko'ra uni vaqtincha qarovsiz qoldirganda (masalan, mashina to'xtash joyida yoki hovlida qoldirilgan narsa-buyum, auditoriyada qoldirilgan portfel va h.k.) egaligidan chiqadi. Shaxs tomonidan yo'qotilgan yoki noto'g'ri qo'yilgan narsagina ushbu shaxsning egaligidan chiqib ketgan deb hisoblanishi mumkin, bu esa uni o'g'irlaganlik uchun javobgarlikni istisno qiladi.

"O'g'rilik" tushunchasida mol-mulkni aybdor yoki boshqa shaxs foydasiga o'tishi, bu shaxsning birovning mol-mulkiga o'z mulkidek egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishning haqiqiy imkoniyatlari ta'minlanishi tushuniladi. Shu tariqa o'g'rilikning g'arazli maqsadi amalga oshadi [6].

Vaqtinchalik muddatga qarz olish va boshqa narsalarga vaqtincha foydalanishda egalik qilish va ulardan o'z manfaatida foydalanish o'g'rilik hisoblanmaydi. Lekin, masalan, avtomashinani qonunga xilof ravishda birovdan tortib olish, firibgarlik yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan boshqa shaxsga mulkiy zarar yetkazish, vakolatni suiiste'mol qilish aniq javobgarlikka sabab bo'ladi. O'g'rilik birovning mulkini tortib olish yoki birovning mulkini jinoyatchi yoki boshqa shaxslar manfaatiga o'tkazib berishni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, kimdir tomonidan topib olingan yoki tasodifan sotib olingan mol-mulkni o'zlashtirib olish o'g'rilik sifatida tasniflanishi mumkin emas. Chunki o'g'rilik jinoyati obyektiv belgisining farqlovchi tomoni uni sodir etish usulidadir. O'g'rilik maxfiy (yoki yashirin) harakat yo'li bilan tavsiflanadi, ya'ni mol-mulkni egasi yoki boshqalar tomonidan vaqtincha sezilmaydi [7].

O'g'rilikni tasniflashda jinoyatchining niyati, qilmishlarining mohiyatidan xabardor bo'lgan-bo'lmagani, mulkning egasi yoki boshqalarga

nisbatan qanday his-tuyg'ulari borligi, jinoyatchi o'z munosabatining mohiyatini tushunib yetgan va yetmaganligini ham hisobga olish kerak.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, noqonuniy o'g'rilikning *to'rt turini* ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Mulkni olib qo'yish mulk egasi yoki boshqa shaxslar yo'qligida amalga oshirilganda va aybdor o'z qilmishi boshqalar sezmaydi deb hisoblanganda. Agar kimdir aybdorning harakatlarini kuza-tgan bo'lsa, lekin aybdor bu haqda bilmagan va u sezdirmasdan harakat qilganiga ishongan bo'lsa, bunday harakat o'g'rilik deb tan olinadi, chunki aybdorning niyati yashirin egalik qilishga qaratilgan bo'ladi va egalik qilish siri jinoyat sodir etilgan vaziyatda o'z obyektiv tasdig'ini topadi.

2. Mulkni tortib olishda jinoyatchining voyaga yetmaganligi, kasalligi, mastligi va boshqa obyektiv sabablar tufayli noqonuniy olib qo'yish faktini tushunmaydigan boshqa shaxslar ishtirokida sodir bo'lganda.

3. O'zgalar mol-mulkni egallab (o'zlashtirib) olish paytida, sodir bo'layotgan voqelikning jinoiy xususiyatini anglamaydigan, aybdorning qonuniy harakat qilayotganiga ishonadigan boshqa sheriklari mavjud bo'lganda.

4. Mulkni egallab olish boshqalarning huzurida sodir bo'lganda, shuningdek, sodir bo'layotgan voqeaning jinoyat ekanligini anglaganda. Ammo vaziyatga qarab, aybdor ularning kelishuviga va ularning har qanday aralashuvini istisno qiladigan, jimgina roziligiga ishonadi. Masalan, korxonadagi ishchilardan biri tomonidan mol-mulkni boshqa ishchilar ishtirokida ularning jimgina roziligi bilan o'g'irlashi talonchilik emas, balki o'g'rilik tarkibini tashkil qiladi. Bunday vaziyatlarda aybdorning harakatlari o'g'rilik guvohlarining irodasini e'tiborsiz qoldirish yoki bostirish bilan bog'liq emas. Ammo, agar aybdorning hisob-kitoblari amalga oshmasa va u guvohlarning irodasini e'tiborsiz qoldirish yoki bostirishga murojaat qilishi kerak bo'lsa, unda aniq holatlarga qarab, uning harakatlari talonchilik yoki bosqinchilik deb tasniflanishi kerak [8].

O'g'rilik jinoyati uni sodir etgan shaxs mulkni egallab olgan va tasarruf etish yoki o'z xohishiga ko'ra foydalanish (yashirish, boshqa shaxslarga berish va hokazo) uchun real imkoniyatga ega

bo'lgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

O'g'rilik sifatida boshlangan, lekin jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar qarshiligiga uchragan va shunga qaramay, jinoyatchi tomonidan mol-mulkni egallab olish yoki uni saqlab qolish maqsadida davom ettirilgan harakatlar talonchilik, zo'ravonlik qo'llanganda yoki undan foydalanish bilan tahdid qilingan taqdirda, zo'ravonlik yoki qurol qo'llash xususiyatiga qarab, talonchilik yoki qurol bilan talon-taroj qilish deb kvalifikatsiya qilinadi [9].

O'g'rilikning obyektiv tomoni – qilmishni sodir etish, ya'ni aybdor tomonidan o'z manfaati yoki boshqa shaxslar manfaati uchun birovning mulkini yashirin ravishda tortib olish va o'zlashtirish. Qilmish o'g'rilikning obyektiv belgisi sifatida birovning mol-mulkini aybdor yoki boshqalarning manfaati uchun tortib olish va o'zlashtirish bo'yicha faol harakatlar bilan belgilanadi [10]. O'g'rilik sodir etilgan taqdirda, yuqorida ko'rsatilgan olib qo'yish va ayirboshlash, ular birgalikda mol-mulkni aybdorning ixtiyoriga o'tkazishni tashkil etadi. Bunda mulk egasi yoki boshqa eganing irodasiga qarshi yoki undan tashqarida amalga oshiriladi. Bu xususiyat, bir tomondan o'g'rilik va boshqa bir tomondan o'zlashtirish yoki o'zlashtirishni farqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zlashtirish yoki o'g'irlash sodir etilganda, faqat boshqa birovning mol-mulkini aybdor yoki boshqa shaxslar foydasiga aylantirish jabrlanuvchining yoki boshqa egasining irodasiga qarshi yoki unga qo'shimcha ravishda amalga oshiriladi. Ammo mol-mulkni olib qo'yish faktining o'zi jabrlanuvchi yoki boshqa egasining irodasi bilan belgilanadi.

Demak, o'zgalar mulkini olib qo'yish ikkita mezonga – *obyektiv* va *subyektiv* mezonlarga bo'linadi. Obyektiv mezon shuni anglatadiki, shaxs obyektiv ravishda yashirin harakat qiladi, ya'ni boshqa shaxslar tomonidan hech qanday harakatlar sezilmaydi [11]. Bunda o'zgalar mulkini olib qo'yishning quyidagi variantlarini (farqlarini) ajratish mumkin.

Birinchidan, olib qo'yish (изъятие) mol-mulkning qonuniy egasi yoki foydalanishga ruxsat berilgan shaxsning yo'qligida sodir bo'ladi. *Ikkinchidan*, olib qo'yish yuqorida sanab o'tilgan shaxslar ishtirokida sodir bo'ladi, lekin ular buni sezmaydilar (masalan, uxlab yotgan, mast,

hushidan ketgan holatda bo'lishi). *Uchinchidan*, ushbu shaxslar ishtirokida sezilarli tarzda olib qo'yish mumkin. Bunda, ular aybdor harakatining jinoiy va noqonuniy tabiatini anglamaydilar. Ko'pincha, olib qo'yishning jinoiy tabiati begona odamlar uchun aniq emas (poyezd stansiyalaridagi, avtovokzallardagi o'g'rilik holatlarida), lekin egasining o'zi olib qo'yishning noqonuniy xususiyatidan bexabar bo'lgan holatlar ham uchrab turadi. Bunday holatda, o'g'rilik firibgarlik bilan kesishishi mumkin, ularning chegaralash mezonlari firibgarlik tarkibini tahlil qilishda ko'rib chiqiladi. Nihoyat, *to'rtinchidan*, mol-mulk begonalar ishtirokida olib qo'yiladi, bu ularga seziladi, ayon bo'ladi, bu shaxslar aybdorning qilmishlarining jinoiy mohiyatini bilishadi, lekin jinoyat ishiga aralashishni (guvoh bo'lishni) xohlamaydilar [12].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bizning fikrimizcha, obyektiv va subyektiv mezonlar o'rtasida qarama-qarshilik bo'lsa, subyektiv mezonga ustunlik berish kerak. Agar shaxs yashirincha harakat qilayotganiga ishongan, lekin olib qo'yish jarayoni boshqalar tomonidan obyektiv kuzatilgan bo'lsa, harakatlar o'g'rilik sifatida tasniflanishi kerak.

O'zgalar mulkini olib qo'yishning sabablari ko'pincha mavjud vaziyat tufayli yuzaga keladi, lekin ba'zi hollarda vaziyat jinoyatchilar tomonidan ongli ravishda yaratiladi (yoki ta'minlanadi). O'zgalar mulkini olib qo'yishning yashirin usuli ushbu jinoyat tarkibi obyektiv tomonining majburiy belgisi bo'lganligi sababli, olib qo'yishning maxfiylikni ta'minlaydigan shaxslar sodir etilgan jinoyatning birgalikda ijrochilari sifatida qaralishi lozim [13]. O'zgalar mol-mulkini olib qo'yishning yana bir usuli – bu zo'ravonliklarsiz, tajovuzlarsiz, yumshoqlik bilan egallab olish usuli, shuning uchun *o'g'rilik zo'ravonliklarsiz jinoyat*dir.

Agar aybdorning xatti-harakatlari o'g'rilik sifatida boshlangan bo'lsa, lekin jinoyatchi mol-mulkning qonuniy egasi (yoki mol-mulkdan foydalanishga ruxsat etilgan shaxs) tomonidan jinoyatga urinish bo'layotgan bosqichida jinoyatchi ushlab olinsa va shunga qaramay, o'z jinoyatini davom ettirgan bo'lsa, o'g'rilik *talonchilikka* aylanadi va agar jinoyatchi mol-mulkni tortib olish yoki uni ushlab turish uchun zo'ravonlik – kuch ishlatgan bo'lsa, unda mazkur jinoyat *bosqinchilik* deb qaraladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Жураев З.А. Криминологическая характеристика краж и совершенствование их профилактики // Юриспруденция, правосудие и государство актуальные вопросы теории и практики. Сборник статей VII международной научно-практической конференции. – Т., 2025.
2. Jurayev Z.A. O'g'rilik – salbiy ijtimoiy hodisa sifatida // J. Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar. (2181-3477). 4-jild. – 10 (2025)
3. O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida» 2014-yil 14-maydagi qonuni // URL: <http://www.lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 2-iyuldagi PQ-3827-son qarori // URL: <http://www.lex.uz>
5. Емелькина Н.Л., Жураев З.А., Причины и последствия прибытия трудовых мигрантов из Узбекистана в Российскую Федерацию с несовершеннолетними детьми // Наука и практика: актуальные вопросы, достижения и инновации. Сборник статей IV международной научно-практической конференции. – 2024.
6. Астанов И. Р. Зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятлар ва уларни тергов қилишнинг ўзига хос жиҳатлари: Ўқув қўлланма. – Т., ТДЮУ, 2015. – Б. 139.
7. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik / Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. M.H. Rustambayev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2008. – B. 163.
8. Предоставление услуг полиции, часть межведомственного реагирования на гендерное насилие. Стандартные оперативные процедуры. 2015/ УНФПА, East European Institute for Reproductive Health.
9. Muxtorov J. S. Ichki ishlar idoralari profilaktika xizmatlari tomonidan jinoyatlarning oldini olishni ta'minlash: Yurid. fan. nomz. ... dis. – T., 2009. – B. 114.
10. Морчев. И. А. Виктимологические аспекты предупреждения насильственных преступлений совершаемых в семье: Автореф. дис. ... кан. юрид. наук. – Краснодар. 2009. – С. 13.
11. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik. – T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021.
12. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik. – T.: "Adolat", 2018.
13. Yodgorov X.B. Fuqarolik protsessida muddatlar va unga rioya etishning ahamiyati: amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirishga doir ba'zi takliflar // Konferensiya materiallari to'plami. – B.32